

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid [Davlat dasturi](#) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son [Farmoni](#) ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son [Farmoniga](#) muvofiq O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti negizida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti (keyingi o‘rinlarda Universitet deb ataladi) tashkil etilganligi;

Universitet jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy va o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, shuningdek, soha mutaxassislarini o‘qitish hamda tayyorlashning ilg‘or usullarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha respublikaning bazaviy oliy ta‘lim, ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-metodik muassasasi hisoblanishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitetning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xalqaro standartlar va kadrlar tayyorlashning ilg‘or tajribasini inobatga olgan holda tegishli yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, universitetning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish;

o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy qilish, yoshlarning sifatli oliy ta‘lim olishlariga keng imkoniyatlar yaratish uchun yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga ega bo‘lgan hamda sport sohasida yuqori natijalarni qayd etgan malakali, amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan xalqaro toifadagi sport ustalari va trenerlarini ta‘lim jarayoniga keng jalb etish;

talabalarning mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni yanada optimallashtirish, ish beruvchilar ehtiyojidan hamda sportda yuqori natijalarni qayd etish talablaridan kelib chiqib, ularning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv rejalarini, dasturlar va o‘quv-metodik materiallarni o‘quv jarayonida qo‘llash;

o‘quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, shu jumladan, xorijiy adabiyotlar fondini va sport sohasiga oid ta‘lim resurslarini muntazam yangilab borish, o‘qitishning innovatsion metodlarini rivojlantirish, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash, talabalar, o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning sport faoliyatiga oid xalqaro axborot va ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, amaliyot, stajirovka o‘tash tartibini takomillashtirish;

tizimli asosda pedagogik va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkadan o‘tkazish, sport muammolarini qamrab olgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish, shuningdek, tayanch doktorantlar, doktorantlar hamda talabalarning akademik almashinuvini ta‘minlash bo‘yicha yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash;

Universitetning xalqaro reytingi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chet el fuqarolari uchun ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirish, sport faoliyatiga oid ijobiy xalqaro tajriba natijalaridan ta‘lim jarayonida foydalanish, nazariy va amaliy bilimlarning sportda boshqaruv sohasi va trenerlik faoliyatida qo‘llash amaliyoti bilan uzviy bog‘liqligini sport tashkilotlari, ixtisoslashgan sport ta‘lim muassasalari, sport federatsiyalari (uyushmalari) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasining boshqaruv organlari bilan faol hamkorlik orqali ta‘minlash;

Universitetning mavjud moddiy-texnika bazasi imkoniyati doirasida qo‘shimcha pulli xizmatlar (ijara, pulli o‘quv kurslari)ni yo‘lga qo‘yish orqali budjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilishni kengaytirish, iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda respublika va xalqaro sport musobaqalarida olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha talabalar sport klublari hamda jamoalarini tashkil etish.

3. Quyidagilar:

2018 — 2021-yillarda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining kadrlar tayyorlash borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

5. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, muammolarni aniqlash, har bir sport turi bo‘yicha sportchilar va jamoalarning tayyorgarlik tizimi dinamikasini hamda rivojlanish istiqbollari belgilashga ko‘maklashish maqsadida Universitet tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda xodimlarning umumiy cheklangan soni 16 kishidan iborat bo‘lgan Sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik holatini o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha maxsus ilmiy laboratoriya (keyingi o‘rinlarda laboratoriya deb ataladi) tashkil etilsin.

6. Quyidagilar laboratoriyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

sportchilarning texnik-taktik, psixofiziologik holatini va ularning jismoniy tayyorgarligini o‘rganish, jismoniy tarbiya va sport sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borish;

sportchilarning turli darajadagi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun sport turlari bo‘yicha terma jamoalarning o‘quv-metodik tayyorgarligini takomillashtirish, yuqori malakali sportchilar va zaxira sportchilarning o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari o‘tishi davrida kompleks ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish;

sportchilarning tayyorgarligini (jismoniy, texnik-taktik, funksional, psixologik) har tomonlama tahlil qilish va modellashtirish;

mashg‘ulot yuklamalarini tahlil qilish, kutilayotgan sport natijalariga erishishga qaratilgan sport tayyorgarligini rejalashtirish va dasturlash;

jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-texnik axborotlarni to‘plash, jismoniy tarbiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi metodikalar va texnologiyalarning ilmiy ekspertizasini tashkil etish hamda ularni amaliyotda qo‘llash mumkinligi to‘g‘risida xulosalar berish;

jismoniy tarbiya va sport sohasidagi dolzarb ilmiy muammolarga bag‘ishlangan ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, yig‘ilishlar tashkil etish;

professor-o‘qituvchilar, tayanch doktorantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, trenerlar, sportchilar va boshqa mutaxassislar uchun ilmiy-metodik, o‘quv-metodik adabiyotlar nashr etish.

7. Belgilansinki:

laboratoriyaning ilmiy va rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash respublika ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tartibiga muvofiq amalga oshiriladi;

laboratoriya buyurtmachi tashkilotlarning buyurtmalaridan kelib chiqib, sport sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini shartnoma asosida, buyurtmachi tashkilotning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga amalga oshiradi.

8. Belgilansinki, Universitet O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha uning huquqiy vorisi hisoblanadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi:

bir oy muddatda Universitetning ustavini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

2018-yil 1-avgustga qadar zarur o‘quv rejalari va dasturlari, o‘quv-metodik materiallar va qo‘llanmalar ishlab chiqilishini hamda ular Universitetning kafedralariga yetkazilishini ta‘minlasin;

2018-yil 1-sentabrga qadar Universitetning bo‘limlari, fakultetlari va kafedralarini yuqori malakali mutaxassislar hamda professor-o‘qituvchi kadrlar bilan ta‘minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Universitetning yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan va mukammal ta‘mirlanadigan bino va inshootlari bo‘yicha loyiha-smeta

hujjatlari belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o'tkazilishi va qurilish-montaj ishlari sifatli bajarilishi yuzasidan davlat arxitektura-qurilish nazorati o'rnatilishini ta'minlasin.

11. Belgilab qo'yilsinki, Universitetni saqlash xarajatlari 2018-yilda "Ta'lim" sohasi bo'yicha tasdiqlangan budget parametrlari doirasida, 2019-yildan boshlab esa mazkur sohaga har yili ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

12. Quyidagilar Universitet faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lar;

xo'jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

13. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

14. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Q.V. Akmalov hamda O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vaziri Sh.X. Isroilov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 3-may,
331-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 331-son qaroriga
2-ILOVA

2018 — 2021-yillarda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining kadrlar tayyorlash borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

| T/r | Amalga oshiriladigan tadbirlar | Bajarish muddati | Moliyalashtirish manbalari | Ijro uchun mas'ullar |
|--|--|----------------------------|---|---|
| I. O'quv-metodik adabiyotlar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish | | | | |
| 1. | 2018-2019 o'quv yilida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bakalavrlar tayyorlash bo'yicha ta'limning sirtqi shakliga qabul kvotalarini shakllantirish yuzasidan taklif ishlab chiqish. | 2018-yil II chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 2. | Jismoniy tarbiya va sport sohasida o'quv rejaları va dasturlar, o'quv-metodik adabiyotlarni hamda elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarni qayta tayyorlash va | 2018-yildan boshlab doimiy | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligining | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy |

| | | | | |
|---|--|----------------------------|--|--|
| | malakasini oshirish muassasalari faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlash. | | budjetdan tashqari mablag'lari | tarbiya va sport universiteti |
| 3. | Jismoniy tarbiya va sport sohasida tegishli yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarni, o'quv-metodik adabiyotlarni hamda boshqa hujjatlarni ishlab chiqish. | 2018-yil III chorak | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining budjetdan tashqari mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| II. Ilg'or xorijiy tajriba asosida o'quv jarayonini tashkil etish hamda ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish | | | | |
| 4. | Fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, jismoniy tarbiya va sportning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy maktablarni rivojlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni mustahkamlash. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 5. | Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi fundamental, amaliy, innovatsion, yoshlar loyihalari va xalqaro grantlar tanlovlarida universitetning faol ishtirokini ta'minlash. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 6. | Xorijiy ta'lim muassasalari va sport tashkilotlari hamkorligida jismoniy tarbiya va sportning muammolari, yutuqlari hamda istiqbollari o'rganishga bag'ishlangan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarni tashkil etish. | 2018-yildan boshlab doimiy | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining budjetdan tashqari mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 7. | Sport turlari bo'yicha federatsiyalar, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, bolalar-o'smirlar sport maktablari hamda Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari bilan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish. Tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot mavzularida sport tashkilotlarining muammolarini qamrab olinishiga e'tibor qaratish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 8. | Institutsional hamkorlik (xorijiy ta'lim muassasalari, sport tashkilotlariga a'zolik) — xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik miqyosini kengaytirish, shu jumladan bakalavrlar, magistrlar, ilmiy izlanuvchilar, professor- | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, |

| | | | | |
|---|--|----------------------------------|---|--|
| | o'qituvchilar uchun malaka almashinuv dasturlarini tuzish. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari bilan akademik almashinuv dasturlarini rivojlantirish. | | | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 9. | Xorijiy yetakchi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv metodik materiallarni keng joriy etish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 10. | Jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish va oliy ta'lim tizimiga keng joriy etish, ta'lim muassasasini zamonaviy o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish. | 2018-yildan boshlab doimiy | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining budgetda tashqari mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| III. Ilmiy salohiyatni oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish | | | | |
| 11. | Ilmiy-pedagogik kadrlar tarkibini istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar bilan to'ldirib borish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 12. | Ilg'or innovatsion va ilm-fan yutuqlariga xizmat qiladigan loyihalar va ishlanmalarni amalga oshirish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 13. | Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va uni amaliyotga joriy etish maqsadida quyidagi maxsus laboratoriyalarni tashkil qilish: Tibbiy-biologik muammolarni o'rganish laboratoriyasi; Psixo-fiziologik muammolarni o'rganish laboratoriyasi; Pedagogika muammolarini o'rganish laboratoriyasi. | 2018-yil 2019-yil 2020-yil | Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 14. | Universitet va Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarini zamonaviy texnika vositalari va maxsus laboratoriya uskunalari bilan jihozlash. | 2018-yildan boshlab doimiy | Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy |

| | | | rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari | tarbiya va sport universiteti |
|-----|---|----------------------------|--|--|
| 15. | Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) tayyorlash tajribasini chuqur tahlil qilgan holda falsafa doktori va fan doktorlarini tayyorlash, yuqori ilmiy-uslubiy va amaliy ahamiyatga ega monografiya va ilmiy maqolalar tayyorlash hamda ularni nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda chop etishni ta'minlash. | 2018-yildan boshlab doimiy | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining budgetdan tashqari mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 16. | Jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi avlod o'quv-uslubiy adabiyotlarini nashr etishga tayyorlash, bunda yangi avlod o'quv adabiyotlarini xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida foydalanilayotgan tegishli adabiyotlarning tanqidiy tahlili asosida yaratish. | 2018-yildan boshlab doimiy | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining budgetdan tashqari mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 17. | Universitet va Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari ilmiy-pedagogik salohiyatini mustahkamlash, ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot-uslubiy materiallar va o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash. | 2018-yildan boshlab doimiy | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining budgetdan tashqari mablag'lari | Sportni rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 18. | Universitetning ilmiy-pedagogik kadrlari faoliyatini tanqidiy o'rganish, o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini qayta ko'rib chiqish. | 2018-yil III chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 19. | Universitetga tibbiyot va ijtimoiy-gumanitar sohadagi ilmiy-pedagog kadrlarni jalb qilish, sport psixologiyasi, sport menejmenti va sport sotsiologiyasi yo'nalishlarida ilmiy-tadqiqotlarni hamda dissertatsiya himoyalarni tashkil etish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 20. | "Ustoz va shogird" an'analari asosida universitetda ilmiy maktablar yaratish ishlarini yo'lga qo'yish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, |

| | | | | |
|--|---|----------------------------|---|---|
| | | | | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 21. | Universitet bilan sport tashkilotlari integratsiyasini ta'minlash, sport tashkilotlarining dolzarb muammolari mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilishini yo'lga qo'yish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 22. | Iqtidorli talabalarni aniqlash va tanlash, ularni magistratura bosqichida ta'lim olishi hamda tayanch doktoranturada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi bo'yicha uzluksiz tizimni yo'lga qo'yish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 23. | Universitet ilmiy-pedagog xodimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar negizida "Fan sportga" ilmiy-nazariy jurnali faoliyatini takomillashtirish va ommalashtirish choralari ko'rish. | 2018-yil II chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 24. | Fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, jismoniy tarbiya va sportning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash. | 2018-yil III chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 25. | Universitetning mutaxassislik kafedralari negizida joylarda ommaviy sportni rivojlantirish muammolarini o'rganuvchi guruhlar tashkil qilish va mavjud muammolar yechimi yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish. | 2018-yil III chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| IV. Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish | | | | |
| 26. | Jismoniy tarbiya va sport sohasida rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minot va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha |

| | | | | |
|-----|---|----------------------------|---|---|
| | | | | mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi |
| 27. | Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlarini olib borishga trenerlik kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan professor-o'qituvchilar, tajribali amaliyotchilar hamda chet el va xalqaro grantlar asosida xorijiy mutaxassislarni jalb etishni kengaytirish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi |
| 28. | Jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagog kadrlarni va trenerlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari bo'yicha zamonaviy talablar va xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda malaka talablarini, o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish. | 2018-yil III chorak | - | O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi |
| 29. | Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari faoliyatini tubdan takomillashtirish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 30. | Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |

| | | | | |
|---|---|----------------------------|---|---|
| 31. | Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarini xalqaro standartlar darajasiga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| V. Fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro hamkorlik va integratsiyani rivojlantirish | | | | |
| 32. | Innovatsion-korporativ hamkorlik doirasida bakalavriat va magistratura bosqichi talabalarini jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, respublika sport federatsiyalari va uyushmalarida amaliyot o'tashlarini kengaytirish hamda ularning bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari himoyasini tashkil etish. | 2018-yildan boshlab doimiy | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 33. | Sport sohasidagi real iste'molchilar talablarini e'tiborga olgan holda malaka talablari tuzilmasi va mazmuni bo'yicha loyihalar tayyorlash. | 2018-yil II chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |
| 34. | Kadrlar buyurtmachilari bo'lgan tashkilotlar bilan korporativ hamkorlikni mustahkamlash asosida o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari sifatini ko'tarish. | 2018-yil II chorak | - | Sportni rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti |

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.05.2018-y., 09/18/331/1146-son; 13.07.2019-y., 09/19/574/3421-son; 13.08.2020-y., 09/20/480/1168-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021-y., 07/21/60/1177-son; 31.12.2022-y., 09/22/731/1141-son)